

Uzbekistan Airways: 30 yil xavfsiz va ishonchli parvozlari

2022 10 Sentabr

O'zbekiston Mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda katta o'zgarishlar bo'lishi tasdig'ini topib ulgurgan edi. Mamlakatimizni qo'shni davlatlar bilan, shuningdek, Yevropa, Osiyo va dunyoning boshqa davlatlari bilan yanada mustahkamlashga va do'stona aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladigan transport sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi.

1992-yilning 28-yanvar kuni mamlakatimiz tarixida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ya'ni ushbu sanada "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Aytish joizki, aviakompaniyamiz o'tgan o'ttiz yil davomida minglab parvozlarni amalga oshirib, millionlab yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazib qo'ydi. Bunda kompaniyada amalga oshirilgan loyiha va modernizatsiyalash tadbirlarining ahamiyati katta bo'ldi, albatta. So'nggi uch yilda sohada katta o'zgarishlar ro'y berdiki, bu yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilab, parvozlari geografiyasini kengaytirishda, infratuzilmalarni zamonaviylashtirishda qo'l keldi. Aytaylik, 2019-yilning oktabr oyida "O'zbekiston havo yo'llari" MAK qayta tashkil etilib, bir-biridan mustaqil bo'lgan ikkita - "Uzbekistan Airways" AJ va "Uzbekistan Airports" AJ kompaniyalariga ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi nishonlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi 5100-sonli Qaroriga muvofiq, «Uzbekistan Airways» aviatashuvlarning gibrid modeliga o'tdi. "Uzbekistan Express" deb nomlangan yangi formatdagi lowcost aviatashuvlar mana bir yildirki respublikamizning deyarli barcha hududlaridan muntazam qatnovlarni amalga oshirib kelmoqda. Buning uchun hozircha 5 ta Airbus 320 havo kemasi to'liq ekonom, yani biznes-klass toifasisiz parvozlarni amalga oshirmoqda. Loyiha doirasida yaqin fursatlarda yana 4 ta, jami 9 ta "to'liq ekonom" havo kemalari aviatatnovlari yo'lqa qo'yiladi.

2021-yilning noyabr oyidan boshlab Uzbekistan Airways va Amadeus axborot texnologiyalari sohasida strategik hamkorlikni boshladi va aviakompaniya Amadeus

Altea platformasiga o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Bugungi kunga kelib aviakompaniya besh yillik strategiya asosida har yili kamida ikki-uchta yangi yo'nalish ochish rejalashtirilgan. Misol uchun, parvozlarni osonlashtirish maqsadida joriy yilning 30-yanvaridan boshlab Namangandan Rossiya Federatsiyasining qator shaharlariga aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Ushbu loyiha "Sharqiy xab" deb nomlandi. Endilikda Farg'ona vodiysi aholisi Namangan xalqaro aeroportidan Moskva, Samara, Perm, Omsk, Irkutsk, Yekaterinburg va Ufaga to'g'ridan-to'g'ri qatnovlarda yetib borish imkoniga ega bo'ldi. Binobarin, loyihadan ko'zlangan maqsad aholiga yetarli shart-sharoit yaratish hamda ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olishdir.

Bugungi kunda "Uzbekistan Airways" AJning ish yuritish va biznes jarayonlari takomillashtirilmoqda. Aviakompaniya tomonidan bugun mahalliy va xalqaro yo'nalishlardagi parvozlarni hududiy aeroportlardan foydalangan holda ko'paytirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Birgina 2021-yilning o'zida Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Qozog'iston Respublikasiga Samarqand - Olmaota, Urganch - Oqtov, Nukus - Oqtov, Nukus - Oqto'ba yo'nalishlarida, Turkiya davlatiga esa Urganch - Istanbul, Farg'ona - Istanbul yo'nalishlarida muntazam aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Shu yilning o'zida Buxoro - Istanbul, Toshkent - Batumi, Toshkent - Sharm el-Sheyx yo'nalishlari bo'ylab qatnovlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 19-avgustidan boshlab Urganch - Milan - Toshkent yo'nalishida yo'lga qo'yildi. Shuningdek, aviakompaniya yo'lovchilar uzoq kutayotgan Malayziya, Tailand, Bangkok kabi shaharlarga parvozlarni yo'lga qo'yish ustida ish olib bormoqda.

Shuningdek, o'tgan yilning may oyida navbatdagi — oltinchi "Boeing 787 Dreamliner" havo kemasi qabul qilib olingan bo'lsa, keyingi oyda "Uzbekistan Helicopters" MJCH bilan hamkorlikda "AIRBUS H-125" va "MI-8MTV" vertolyotlari taqdimoti o'tkazildi.

Bundan tashqari, "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasi O'zbekistonda biznes aviatsiyasiga qadam qo'yilganini ma'lum qildi. Aviakompaniya shaxsiy "Pilatus PC-24" havo kemasidan foydalanishni boshladi. Bular aviakompaniya tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning bir qismi, xolos. Binobarin, tizimida ko'rilayotgan choralar ko'lami juda keng. Shunga yarasha kompaniyaning imkoniyatlari ham oshib bormoqda. Muhimi, soha mutasaddiyu, mutaxassislari bu bilan cheklanib qolayotganlari yo'q. Yangi-yangi tashabbus va loyihalarni ilgari surishmoqda.

Shulardan eng asosiylaridan biri – bu pandemiya sharoitida kelib chiqqan masalalarni hal etishga qaratilgani aniq. Negaki, global pandemiya boshqa sohalar qatorida transport sohasiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatdi. Katta-katta shaharlar, aeroportlar yopib qo’yildi. Bu, tabiiyki, samolyotlar parvozigga, demakki ish jarayoniga xalaqit qildi. Shu bois ayni paytda “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasi jamoasi pandemiya oqibatlarini yumshatishga harakat qilmoqda.

Shu yilning o’zida bir qator loyihalar tashkil etildi. Ulardan “Ilk parvozim” ijtimoiy loyihasi. Bu loyiha “Temir daftar”ga kiritilgan ayollarni bir kun davomida hayot tashvishlaridan xoli bo’lgan holda sayohat qilish imkoniyatini yaratish etib belgilangan. Mart oyidan boshlangan loyihada Toshkent, Sirdaryo, Namangan viloyati ayollariga mamlakatimizning mashhur shaharlari, ularning ziyoratgohlari bo’ylab sayohatlar tashkil etildi. Xiva, Buxoro, Termiz va Toshkent shaharlarida bo’lib o’tgan sayohat bilan birga munis ayollar o’z orzularini – havo kemasida parvoz qilish imkoniyatini amalga oshirishdi.

Transformatsiya jarayonidagi katta o’zgarishlardan biri bu – kompaniya aviaparkini unifikatsiyalash hisoblanadi. Uzbekistan Airways joriy yilning 14-fevral kuni ilk Airbus A321LR havo kemasini qabul qilib oldi. Keyin esa ketma-ket 2 va 3-chi shu turdagi havo kemalari kelib qo’shildi. Bu esa aviakompaniya faoliyatini rivojlantirishga bo’lgan navbatdagi qadam bo’ldi.

– So’nggi yillar shuni ko’rsatdiki, transport tizimining rivojlanishi va transformatsiya jarayoni bu mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi yana bir bor o’z tasdig’ini topdi desam, xato bo’lmaydi. Aviakompaniya to’liq transformatsiya jarayonida, buni keyingi ikki yilda katta o’zgarishlardan ham bilib olish mumkin. Amadeus tizimiga o’tish hamda yirik Airbus kompaniyasi bilan yangi havo kemalari yetkazib berish bo’yicha imzolangan kelishuv – bu barchasi yo’lovchilarga yaratilayotgan qulayliklar deb bilaman, – Ilhom Mahkamov, “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisi.

Darhaqiqat, yo’lovchilarga sifatli va qulay sharoitlar yatarib berish ustida ishlayotgan kompaniya vakillari yana bir qator xizmatlarni ishga tushirdi. Aviachiptalarni rasmiy sayt va mobil ilovadan xarid qilish, aviachiptani qayta rasmiylashtirish xizmati, maxsus taomga buyurtma berish – bularning barchasi yo’lovchilar onlayn tarzda amalga oshiradigan xizmatlar toifasiga kiradi.

Ilgari Uzbekistan Airways o’z qadriyatlarini jamoatchilik oldida qo’llab-quvvatlovchi hamda to’g’ri namoyon etuvchi san’atkor bilan hamkorlik olib bormagan. So’nggi

yillarda aviatsiya sohasida ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldi va mamlakatning asosiy aviatashuvchisi yangi rivojlanish yo'lini tanladi.

Aviakompaniya faoliyatining barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, va nihoyat aviakompaniya yuzi tanlandi, endi u – mashhur xonanda Sevara Nazarxon. Aviakompaniya vakillari Sevaraning ijodini yaqindan tanishadi, hurmat qilishadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sevara nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham tanilgan.

Aviakompaniya Sevara Nazarxon va uning ijodiy jamoasi ushbu hamkorlik doirasida aviatashuvchi xizmatlari haqida jamoatchilikni xabardor qilishiga, yangi ochiqlik siyosati hamda kutilayotgan o'zgarishlar borasida yo'lovchilarga uzluksiz ma'lumot yetkazishiga ishonadi.

Ushbu yilning yana bir yangiligi bu yozgi amaliyot dasturi bo'ldi. Mamlakatimizning qator oliy o'quv yurtlarining talabalari ikki oy davomida aviakompaniya hayoti va unda bo'layotgan o'zgarishlar bilan tanishishdi. Uzbekistan Airways har doim yoshlarni qo'llab-quvvatlashga tayyor hamda ularning intilishi va shijoati yurtimiz, hamda kompaniya ish faoliyatida katta yordam berishiga ishonadi.

Har yili asosiy milliy bayram – O'zbekiston Mustaqilligi kuni arafasida aviatsiya xodimlari, turli sohalarning boshqa vakillari singari, mamlakatimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlanadilar. Rag'batlantirilganlar orasida har kuni Mustaqil O'zbekistonning rivojlanishi uchun mehnat qilayotgan uchuvchilar, muhandislar va soha vakillari ham bor.

Uzbekistan Airways jamoasi yurtdoshlarimizga sihat-salomatlik, har bir xonadonga fayzu baraka, tinchlik-totuvlik va farovonlik tilaydi. Yurtimiz tinch, osmonimiz hamisha musaffo, Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!